

**MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJODIY TAFAKKURINI
RIVOJLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARNING XUSUSIYATLARI**

Bobojonova Muyassar Obod qizi

*No'kis davlat pedagogika instituti "Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi" 1-
bosqich magistranti*

Annotatsiya: mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishda interfaol metodlarning xususiyatlari haqida so'z yuritiladi

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, interaktiv metod, tarbiya, tafakkur, liderlik.

Bugungi kunda ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, ayniqsa, maktabgacha ta'lim bosqichida bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Yangi O'zbekistonni barpo etishda bizga zamonaviy bilim va mustaqil fikrlaydigan, kreativ tafakkurga ega bo'lgan yoshlar kerak". Mazkur fikr bolalikdan boshlab ijodiy va erkin fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish muhimligini yaqqol namoyon etadi.

Shu nuqtai nazardan, maktabgacha ta'lim muassasalarida interfaol metodlarni qo'llash orqali bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu maqolada interfaol metodlarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning maktabgacha yoshdagi bolalar ijodiy tafakkuriga ta'siri ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi.

Qobiliyat tug'ma emas — u tarbiya mahsuli bo'lsa ijodkorlik - bu yangi, o'ziga xos narsalarni yaratish jarayoni hisoblanadi. Pedagogikaning muhim vazifalaridan biri ijodiy shaxsni shakllantirishdan iborat. Zamonaviy jamiyat ijodiy tafakkurga qodir bo'lgan nostandart diversifikatsiyalangan shaxslarga muhtoj. Ijodiy tafakkurga quyidagilar kiradi: tasavvur, fantaziya, sezgi, xayoliy fikrlash, qiziquvchanlik, tashabbuskorlik va nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash qobiliyati. Ijodiy tafakkurlar - bu shaxs sifatining individual xususiyatlari bo'lib, u turli ijodiy faoliyatni amalga oshirish muvaffaqiyatini belgilaydi. Ijodkorlik elementi inson faoliyatining har qanday turida bo'lishi mumkinligi sababli, nafaqat badiiy ijod, balki texnik ijodkorlik, matematik ijodkorlik va hokazolar haqida ham gapirish o'rinli bo'ladi.

Ilmiy ma'lumotlarning dalolat berishicha, bola ijodiy tafakkurni darhol emas, balki asta-sekin va katta yoshdagi odamning rahbarligida egallaydi. Tajribalarda ko'rsatilishicha, bolalarning aynan ijodiy tafakkurini rivojlantirish maktabgacha ta'lim yosh davriga to'g'ri kelishi isbotlangan. Barchamizga ma'lumki, uzliksiz ta'limning ilk bo'g'ini bo'lmish maktabgacha ta'lim bolalarni jamiyat bilan bog'laydigan eng muhim maskanlardan biri sanaladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar ijodiy tafakkurlarini rivojlantirishning bir qancha muhiti yaratilgan. Shulardan biri interfaol metodlardan foydalanish. Interfaol metodlar - o'quvchilarning o'zaro muloqot va

o'zaro tasiridagi dars jarayonini amalga oshiruvchi usuldir. "Interaktiv" so'zi ingliz tilidan olingan "Interakt", yani "Inter" - o'zaro, "akt" - harakat, tasir, faollik ma'nolarini beradi. Maktabgacha ta'limda interaktiv metodlarni qo'llash, bolaning qiziqishini oshirish, fikr doirasini kengaytirish, nutq va ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish xususiyatlarini shakllantirish kabilar bilan izohlanadi:

Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarga interaktiv metodlarni qo'llash mashg'ulot o'tkazuvchi va kun davomida bolalar bilan vaqt o'tkazuvchi tarbiyachi zimmasida bo'ladi. Tarbiyachi bola bilan maktabgacha ta'lim tashkilotiga tashrif buyirganidan boshlab shug'ullanishi kerak. Tarbiyalanuvchilar bilan ishlayotgan tarbiyachiga bir qancha talablar qo'yiladi. Xalqimizda "Talab bor joyda sifat bor" degan ibora bor. Albatta maktabgacha ta'lim tashkilotida maktabgacha yosh bolalar faoliyatida interfaol metodlarni qo'llashda tarbiyachi mahorati belgilangan talabning sifatga aylanishiga asos bo'ladi.

Jumladan, interfaol metodni qo'llashda malakasining yetarli bo'lishi, liderlik qobiliyati, jamoatchilik bilan ishlashda qonun- qoidalarini tartibga solishi, interfaol metodlar haqida izlanishi, ta'limiy mashg'ulotlar vaqtini to'g'ri taqsimlashi, bolalarning yosh xususiyatlarni inobatga olishi va eng asosiysi zamonaviy texnik jihozlardan to'g'ri foydalana olishi va boshqalar.

Maktabgacha ta'limda interfaol metodlar bolaning har tomonlama rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ammo ularni to'g'ri va samarali joriy etish uchun mavjud to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha tizimli yondashuv zarur. Bu esa nafaqat pedagoglar, balki ota-onalar, muassasa rahbarlari va butun jamiyatning hamkorligini talab etadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyat jarayonida tajriba va kuzatishlar shuni ko'rsatishicha tarbiyachi malakasining yetarlicha bo'lmasligi, bola yoshi inobatga olinmasligi, zamonaviy jihozlarning va ko'rgazmali qurollarning yetarli emasligi, barcha bolalarning intellekti bir xil bo'lmaganligi sababli ayrim bolalar o'yin vaqtida chetda qolishi kabi qator muammolar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilar tomonidan olib qo'llanilishi zarur bo'lgan interfaol metodlarni amaliyotga tadbiq etishda muammolar yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachi interfaol metodlarni qo'llashdagi bu kabi muammolarni bartaraf qilishda qo'llaniladigan metodlarning bola yoshiga mos kelishi, bolalarni kuztish va o'zlashitirishda qiyinchiliklarga duch kelayotgan bolalar bilan individual ishlashish jarayonlarini tizimlashtirishda tarbiyachilarning vaqtini tejash va ish samarasini oshirish uchun metodik ta'minot bazasini kengaytirish uchun tarbiyachi mahoratini oshirish kurslarini tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Interfaol metodlarning asosiy xususiyati shundaki, ular bolaning faol ishtirokini ta'minlaydi, ta'lim jarayonini qiziqarli va mazmunli tashkil etishga xizmat qiladi. O'yin texnologiyalari, rolli o'yinlar, muammoli vaziyatlar, munozaralar, ijodiy topshiriqlar orqali bolalarning tasavvuri kengayadi, tafakkuri faollashadi va shaxsiy imkoniyatlari yuzaga chiqadi. Bu esa maktabgacha ta'lim jarayonida sifat va samaradorlikni oshirishga zamin yaratadi.

Shuningdek, interfaol metodlardan tizimli va maqsadli foydalanish tarbiyachidan yuqori kasbiy mahorat, pedagogik innovatsiyalarga ochiqlik va ijodkorlikni talab etadi. Tarbiyachi tomonidan metodlarning yosh xususiyatlariga mos ravishda to'g'ri tanlanishi bolalarning intellektual va ijodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha ta'lim muassasalarida interfaol metodlarni keng joriy etish, ularni amaliyot bilan uyg'unlashtirish hamda pedagoglarning ushbu yo'nalishdagi kompetensiyalarini rivojlantirish orqali bolalarning ijodiy tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish mumkin. Bu esa kelajakda mustaqil fikrlaydigan, kreativ va tashabbuskor avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis (parlament)ga murojaati. 2020-yil 3-sentabrda Prezident nutqida president.uz
2. Fozilova O., Islomxo'jayeva G. Q. "Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullari" Yangi taraqqiyot pedagoglari axborotnomasi 1-jild, 4-son, Part-2 (YO'PA) 26-bet
3. Зияев А.Н. "Правила использования интерактивных методов обучения" Conferencea (2023): 143-148.
4. Haydarova N. A. "Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirishda zamonaviy va interfaol ta'lim metodlarini qo'llashdagi muammo va yechimlar" international scientific and practical conference strategies for improving and developing the quality of preschool education: problems, solutions and international experience, April 16-17, 2025.
5. Vygotskiy L.N. Maktabgacha yoshdagi tasavvur va ijodkorlik. - Sankt-Peterburg: Ittifoq, 1997. 92 str.
6. Г Назирова, И Саминова Механизмы развития интеллектуальных способностей воспитанников дошкольных образовательных организаций Академические исследования в современной науке 2 (24), 182-186
7. Z Bahodirovna International trends in the development of the preschool education system Open Access Repository 9, 236-240 2022